

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI YAXSHILIK VA YOMONLIKNI IFODALOVCHI MAQOLLARDA MA'DANIYAT AKS ETTIRILISHI

Ernazarova Shahnoza Ergash qizi

Toshkent Gumanitar fanlar universiteti ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilidagi yaxshilik va yomonlikni ifodalagan maqollarda qo'llanilgan so'zlar o'sha xalq ma'daniyatini ko'rsatib berishi o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, ma'daniyat, yaxshilik, yomonlik, ingliz tili, o'zbek tili.

Maqol har bir xalq ma'daniyatini ko'rsatib beruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqollar paydo bo'lishi juda uzoq o'tmishga borib taqaladi va o'sha xalq odob-ahloq qoidalari, turmush tarzi, dunyoqarashi haqida ma'lumot beradi. Shu sababli ham boshqa xalq ma'daniyatini o'rganishda maqollarning o'zni beqiyosdir.

O'zbek tilida maqol so'zi arabcha "qavlun" so'zidan olingan bo'lib, gapirmoq, aytmoq degan ma'nolarni bildiradi.[Murodova, 2008] Dastlabki maqol na'munalari Mahmud Koshgariyning "Devonu lug'ati turk" asarida uchraydi. Bundan tashqari Muhammad Sharif Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida 300 dan ortiq o'zbek xalq maqollari berilgan. Alisher Navoiy "Tarixiy mulki Ajam" asarida turkiy tilda mavjud maqollardan ko'plaridan foydalangan.[Алишер Навоий, 1967,]

Ingliz tilidagi "proverb" so'zi lotin tilidagi "proverbium" so'zidan olingan bo'lib, qisqa, ma'noli so'zlar va maslahat degan ma'noni anglatadi.[wikipedia] Stuart.A. Gallaxer ham maqolni quyidagicha ifodalagan "Maqol - bu zohiriy haqiqatning ixcham ifodasidir, yani xalq orasida ko'rinadigan haqiqatlarning qisqacha an'anaviy bayonidir. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, hikmat, haqiqat, odob-axloq va an'anaviy qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan turg'un va yodda qoladigan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalqning qisqa, umume'tirof etilgan jumlasidir".[Stuard, 1996,]

Ingliz va o'zbek tilidagi yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollarni tahlil qilar ekanmiz, ko'plab maqollarda faqatgina ushbu xalqgagina tegishli bo'lgan jihatlarni ko'rishingiz mumkin. Bundan tashqari ikki xalq maqollarida uchraydigan jihatlarni ham yetarlicha bo'lib, bu esa maqollarni to'g'ridan-to'g'ri tarjimasini orqali tushunish imkonini beradi

| English | English&Uzbek | Uzbek |
|--|---|---|
| <ul style="list-style-type: none">Christmas piesixpenceChurchellinch | <ul style="list-style-type: none">Devil(Shayton)yaxshilikyomonlikoqqoraqo'shnixudoXotinit | <ul style="list-style-type: none">baxshidutoroshholvaMakkaatlassavobmag'uzto'nhayvon (ilon,ho'kiz, qashqir, sigir, tuya) |

Where God builds a **church**, the devil will build a chapel.- Yaxshi turmas, yomon o'lmas.

Bu maqolda “church” soʻzi yani ibodat joyi yaxshilik sifatida talqin qilinmoqda. Yaxshilik bor joyda yomonlik ham boʻladi degan umimiy maʼnoni bersa, oʻzbek tilida bu “Bir yomonlik ortidan yaxshilik bordir” maqolini ekvivalent sifatida berishimiz mumkin.

Keyingi ingliz yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollarida milliy koloritni ifodalovchi soʻz bu “sixpence” boʻlib, maqolda quyidagicha talqin etilgan.

There is not the thickness of a **sixpence** between good and evil.

Ushbu maqolda yaxshilik va yomonlik orasi yaqin deganni boʻlib, “sixpence” Angliyadagi XVI asrda muomalaga kiritilgan pul birligi hisoblanadi. Bu maqolni oʻzbekcha ekvivalenti sifatida quyidagi maqolni keltirishimiz mumkin.:Yaxshilik va yomonlik orasi-bir qadam.

Yana bir ingliz madaniyatiga doir boʻlgan bu “ell” va “inch” soʻzidir. “Ell” va “inch” soʻzlari oʻlchov birligi hisoblanadi. bu

Evil comes to us by **ells** and goes away by **inches**. (Kasallik kelishi oson, ketishi qiyin.)

Keyingi ingliz madaniyatini koʻrsatuvchi yaxshilik va yomonlik haqidagi maqollarda uchraydigan bu “Christmas pie” soʻzidir.

The devil makes his **Christmas pies** of lawyers’ tongue and clerks finger.

Rojdestvo mavsumida qiyma piroglarni isteʼmol qilish omad keltiradi deb hisoblanadi. Bu maqol esa odamlarning tilyogʻmaligini ifodalashda ishlatilgan.

Oʻzbek xalq maqollaridagi yaxshilik va yomonlikni ifodalovchi maqollarda ham oʻzbek xalqiga xos manaviy koloritni ifodalaydigan maqollar ham mavjud. Baxshi va dutor soʻzlari doimo birga ishlatilib, yaxshilikni ifodalab keladi.

Baxshi bor joyda yaxshi bor.

Dutorsiz baxshi boʻlmas, Yomonsiz-yaxshi.

Bundan tashqari ushbu turkumdagi maqollar tarkibida “atlas”, “osh”, “Makka” va “holva” kabi soʻzlar qatnashgan maqollar mavjud boʻlib, bu maqollar faqatgina bizning millatimiz uchun xos.

Yomon **atlas** bilan ham yomon.

Bir koʻngil imorati-ming **Makka** ziyorati.

Yomonga **osh** berguncha yaxshiga bosh ber.

Tosh otganga **osh** ot.

Yomon **osh**ga oʻrtoq, boshga toʻqmoq.

Yaxshi bilan yoʻldosh boʻlsang, **holva** bilan shakar.

Ingliz va oʻzbek xalq maqollarida “Devil” va “shayton, iblis” soʻzlari yomonlikni ifodalash uchun ishlatilgan.

An idle mind is the **devil**’s workshop. –Bekorichidan xudo bezor

It is easier to raise the **devil** than to lay him. - Oz gapir — soz gapir.

Young saint, old **devil**.

Talk of the **devil** and the **devil** appears.

Better the **devil** you know than the devil you don’t know.-Yoʻq muttahamdan bor muttaham yomon.

Yaxshining qalbi iymon, yomonning doʻsti shayton.

Notanish farishtadan sinalgan shayton yaxshi.

Tek turganda shayton tayoq tutqazar.

Shuningdek, inglizlarga xos yana bir jihat – bu ularning uy hayvonlariga bo'lgan mehri “it”, “mushuk” obrazlari orqali ko'proq pozitiv ma'noda qo'llanishiga guvoh bo'lamiz. Masalan:

The good dog deserves a good bone. Yaxshilikka-yaxshilik qaytar.

Dog does not eat dog. - Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi. •

Barking dogs seldom bite. - Ko'p vovullagan it tishlamaydi.

O'zbek maqollarida it yomonlik ma'nosida qo'llaniladi.

Yomon it kunduzi hurar.

It yeganidan bo'ri yegani yaxshi.

It itligini etar,

To'n etagini yirtar.

Ingliz va o'zbek maqollarida yaxshilik va yomonlikni ifodalashda oq va qora ranglari orqali ifodalangan maqollar ko'pchilikni tashkil etadi.

Two blacks don't make a white.

Black will take no other hue.

Two blacks do not make a white, two wrongs do not make a right.

Qora qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi.

Yaxshi –bog' -u bo'ston, Yomon-qora qozon.

Dili qora-tili qora.

Dili qoraning qilmishi qiyiqlik.

Yaxshiga qora yuqmas, Yomonga el boqmas.

Berilgan misollar orqali shuni anglash mumkinki, ingliz va o'zbek maqollarida umumiy, farqli jihatlari mavjud bo'lib, bu esa har bir xalq maqollarida o'z madaniyati, turmush-tarzi va urf-odatlariga haqida ma'lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodova M. Folklor va etnografiya //“Aloqachi”.-Toshkent,2008
2. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. – Тошкент, 1967
3. <https://en.wikipedia.org/>
4. Stuard.A. Gallaxer. American Folklore //Encyclopedia. 1996